

**“TASDIQLANGAN”
“O‘zkimyosanoat” AJ
yagona aksiyadorining
2023-yil 29–maydagi
5-son qarori bilan**

**“O‘ZKIMYOSANOAT”
AKSIYADORLIK JAMIYATINING
“IJROIYA ORGANI (BOSHQARUVI) TO‘G‘RISIDA”GI NIZOMI
(YANGI TAHRIR)**

Toshkent – 2023-yil

YANGI TAHRIR

I bo'lim. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu nizom O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni, Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish komissiyasi yig'ilishlarining bayonnomalari bilan (11.02.2016-y. 02-02/1-187-son) va (27.04.2018-y. 24/1-989-son) tasdiqlangan Korporativ boshqaruv kodeksi va Davlat ishtirokidagi korxonalar uchun korporativ boshqaruv qoidalarining tavsiyalariga va "O'zkimyosanoat" AJ (keyingi o'rinlarda - Jamiyat) ustaviga muvofiq ishlab chiqilgan hamda Jamiyat Boshqaruvining maqomini belgilaydi va uning ishini, a'zolarini saylash (tayinlash), shuningdek, boshqaruv a'zolarining har birining huquqlari (vakolatlari) va majburiyatlarini tartibga soladi.

1.2. Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilish kollegial ijroiya organi - boshqaruvi tomonidan amalga oshiriladi.

II bo'lim. Jamiyat boshqaruvini tashkil etish tartibi

2.1. Jamiyat boshqaruvi 6 (olti) kishidan iborat:

- Boshqaruv raisi;
- Boshqaruv raisining transformatsiya masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari;
- Boshqaruv raisining ishlab chiqarish, mahalliy lashtirish, sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish va axborot texnologiyalari bo'yicha birinchi o'rinbosari;
- Boshqaruv raisining investitsiya va innovatsiya bo'yicha o'rinbosari;
- Boshqaruv raisining iqtisodiyot va moliya bo'yicha o'rinbosari;
- Investitsiya masalalari bo'yicha boshqaruv raisi maslahatchisi – xalqaro tanlov asosida chet ellik kimyo sanoati soha mutaxassislarini (jumladan, vatandoshlarni) faol jalb etish orqali tayinlanadigan malakali xalqaro mutaxassis.

2.2. Boshqaruv raisi va uning a'zolari lavozimlariga nomzodlarni ko'rsatish qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

2.3. Boshqaruv raisi va uning a'zolarini saylash (tayinlash) aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan amalga oshiriladi.

2.4. Shartnoma Jamiyat nomidan Jamiyat kuzatuv kengashining raisi yoki kuzatuv kengashi vakolat bergan shaxs tomonidan imzolanadi.

2.5. Jamiyat kuzatuv kengashi boshqaruv a'zolari bilan tuzilgan shartnomani ular shartnoma shartlarini buzgan taqdirda, tugatishga (bekor qilishga) haqli. Jamiyat kuzatuv kengashi boshqaruv raisi bilan tuzilgan shartnomani, agar u Jamiyat ustavini qo'pol tarzda buzsa yoki uning harakatlari (harakatsizligi) tufayli Jamiyatga zarar yetkazilgan bo'lsa, muddatidan ilgari tugatish (bekor qilish) huquqiga ega.

2.6. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra Jamiyat boshqaruvi raisini va boshqaruv a'zolarini tayinlash, qoida tariqasida, chet ellik menejerlar ishtirok etishi mumkin bo'lgan tanlov bo'yicha saralash asosida amalga oshiriladi.

III bo'lim. Boshqaruvning, shuningdek, uning a'zolari huquqlari va majburiyatlari

3.1. Jamiyatning boshqaruvi kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning kuzatilishi, nazorat qilinishi va ijro etilishini ta'minlaydigan kuzatuv kengashining ishchi organi hisoblanadi.

3.2. Jamiyat boshqaruvining vakolatiga Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalar kiradi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining yoki Jamiyat kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar bundan mustasno.

3.3. Jamiyatning boshqaruvi aksiyadorlar umumiy yig'ilishining va Jamiyat kuzatuv kengashining qarorlari bajarilishini ta'minlaydi.

3.4. Jamiyat boshqaruvining huquqlari va majburiyatlari:

3.4.1. O'z vakolatlari doirasida Jamiyatning mol–mulki va pul mablag'larini tasarruf etish.

3.4.2. Jamiyatning tarkibiy bo'linmalari to'g'risidagi nizomlar, xodimlarning lavozim yo'riqnomalarini tasdiqlash.

3.4.3. Jamiyatning ichki me'yoriy hujjatlarini tasdiqlash, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining va kuzatuv kengashining vakolatiga kiritilgan ichki me'yoriy hujjatlarini tasdiqlash bundan mustasno.

3.4.4. Jamiyat tomonidan tasdiqlangan nomenklaturaga muvofiq aksiyadorlik Jamiyatlar, jamiyatlar va korxonalarining ijroiya apparati lavozimiga nomzodlarni boshqaruv bilan kelishilishi lozim bo'lgan tartibni belgilash.

3.4.5. Aksiyadorlik jamiyatlar, tashkilotlar, vakolatxonalar va filiallar uchun majburiy bo'lgan Jamiyat boshqaruvining qarorlarini qabul qilish.

3.4.6. Jamiyat filiallari rahbarlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish.

3.4.7. Jamiyatni rivojlantirish dasturlari va biznes-rejalarini ishlab chiqish, ularni bajarilishini nazorat qilish.

3.4.8. Jamiyatning vakolatli boshqaruv organi tomonidan tasdiqlangan biznes-rejada ko'rsatilgan miqdorlarda foyda olishni ta'minlash.

3.4.9. Qonunchilikka muvofiq Jamiyatda buxgalteriya hisobi va hisobotining tashkil etilishi va ishonchligini hamda aksiyadorlarga, kreditorlarga va boshqa oluvchilarga yuboriladigan Jamiyat faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etilishini ta'minlash.

3.4.10. Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hujjatlar Jamiyatning kuzatuv kengashi, taftish komissiyasi va Jamiyat auditori talabiga ko'ra to'sqinliksiz taqdim etish.

3.4.11. O'z vakolatlari doirasida mol-mulkni olish yoki uni boshqa shaxsga berish yoxud mol-mulkni boshqa shaxsga berish ehtimoli bilan bog'liq bitim tuzish (bitim tuzish masalasida Jamiyat boshqaruvi yakdilligiga erishilmagan hollarda bitim tuzish to'g'risidagi masala Jamiyat boshqaruvi qaroriga muvofiq kuzatuv kengashi hukmiga havola etilishi mumkin).

3.4.12. Jamiyatning tijorat sirini tashkil etuvchi axborotlarni saqlash.

3.4.13. Dividendlar hisoblanishi va to'lanishi bo'yicha aksiyadorlarning barcha huquqlariga rioya qilish.

3.4.14. O'z vakolatlari doirasida Jamiyatning samarali va barqaror ishlashini ta'minlash.

3.4.15. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga hamda Jamiyat ichki hujjatlariga rioya qilish.

Jamiyatning boshqaruvi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, Jamiyatning ustavi va me'yoriy hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar (huquqlar) va majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

3.5. Boshqaruv a'zolari qonunchilikda, Jamiyat ustavida, mazkur nizomda, ular bilan tuzilgan mehnat shartnoma shartlarida, lavozim yo'riqnomasida, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va kuzatuv kengashi qarorlarida belgilangan vakolatlar doirasida harakat qiladi.

IV bo'lim.

Boshqaruv raisining huquqlari va majburiyatlari

4.1. Boshqaruv rasi Jamiyat faoliyatining barcha masalalarini, shu jumladan, kuzatuv kengashi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan, ustav va Jamiyat rivojlanish rejalari bilan belgilangan vazifalarni qat'iy bajarilishi uchun mustaqil hal qiladi, aksiyadorlar umumiy yig'ilishining yoki kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar bundan mustasno.

4.2. Boshqaruv rasi:

4.2.1. Jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritish, davlat muassasalarida, mulkchilik shaklidan qa'ti nazar, barcha korxonalar va tashkilotlarda uning manfaatlarini ifodalash.

4.2.2. O'z vakolatlari doirasida, Jamiyatning mulki va pul mablag'lariga egalik qilish.

4.2.3. O'z vakolatlari doirasida, Jamiyat nomidan bitimlar tuzish hamda shartnomalar va kontraktlarni imzolash.

4.2.4. Jamiyat nomidan ishonchnomalarni berish;

4.2.5. Banklarda hisob, valyuta va boshqa raqamlarni ochish, Jamiyatning bank va boshqa moliya hujjatlarida birinchi imzo huquqi bilan.

- 4.2.6. Jamiyatning barcha xodimlari bajarishi majburiy bo'lgan buyruqlar, farmoyishlar chiqarish va ko'rsatmalar berish;
- 4.2.7. Xodimlarning shtat jadvallari tasdiqlash;
- 4.2.8. Xodimlarni ishga qabul qilish, ular bilan mehnat shartnomalarni tuzish va bekor qilish, ularga nisbatan intizomiy jazo choralari qo'llash, xodimlar tomonidan mehnat va ijro intizomini saqlab turishini ta'minlash;
- 4.2.9. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash, obyektlarda tartib choralari hamda davlat va tijorat siri saqlanishini buzilish, favqulodda hodisalar faktlari bo'yicha va ular vujudga kelishi masalalar bo'yicha xizmat tekshirish o'tkazishni tayinlash. Ushbu maqsadda sohadagi kerakli mutaxassislarni jalb qilish. Xizmat tekshirish natijalarini Jamiyatning barcha mansabdor shaxslari va korxonalarining xulosalarini majburiy bajargan xolda tasdiqlash. Olingan materiallarni respublika nazorat va huquqni muhofaza qiluvchi organlariga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq topshirish.
- 4.2.10. Jamiyat xodimlari tomonidan mehnat intizomi, Jamiyatning ichki me'yoriy hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari buzilgan taqdirda, intizomiy jazo choralari va ularga nisbatan Jamiyatning ichki me'yoriy hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa choralarni qo'llash, shuningdek, ushbu vakolatlarni boshqalarga topshirish.
- 4.2.11. Kelgusi yil uchun Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha yillik tadbirlar rejasini tasdiqlash (joriy yilning 1-dekabridan kechiktirmay).
- 4.2.12. O'z vakolatlari doirasidagi vakolatlar doirasida axloq qoidalari va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi ichki normativ hujjatlarni tasdiqlash.
- 4.2.13. Jamiyat va sho'ba korxonalaridagi korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi, shu jumladan, axloq va korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha yillik hisobotlarni ko'rib chiqish.
- 4.2.14. Qonunchilikda, shuningdek, ichki qoidalar, shu jumladan, odob-axloq va korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi buzilishlar bo'yicha Jamiyatda ichki tekshiruvlarni boshlash.
- 4.2.15. Jamiyatda va uning sho'ba korxonalarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yaratish, ta'minlash, samarali ishlashi, shuningdek, doimiy monitoring va nazorat qilish, shu jumladan, tashkiliy, uslubiy va resurslarni qo'llab-quvvatlash, Jamiyat va sho'ba korxonalarining tomonidan qabul qilingan korrupsiyaga qarshi kurash prinsiplari va talablari buzilishiga o'z vaqtida va yetarli darajada reaksiya qilish.
- 4.2.16. Qonunchilikka, Jamiyat ustavi va mehnat shartnomasiga muvofiq boshqa huquqlarga ega.
- 4.3. Boshqaruv raisining majburiyatlari:
- 4.3.1. Jamiyatning kundalik faoliyatiga uning samaradorligini va barqarorligini ta'minlagan holda rahbarlik qilish aksiyadorlar umumiy yig'ilishining va kuzatuv kengashining mutloq vakolatiga kiritilgan masalalar bundan mustasno.
- 4.3.2. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va kuzatuv kengashi qarorlarini bajarilishini tashkillashtirish.
- 4.3.3. Jamiyatning tarkibiy bo'linmalarining o'zaro samarali harakatini ta'minlash.
- 4.3.4. Jamiyat shartnoma majburiyatlarining bajarilishini ta'minlash.
- 4.3.5. Jamiyatning vakolatli boshqaruv organi tomonidan tasdiqlangan biznes-rejada ko'rsatilgan miqdorlarda foyda olishni ta'minlash.
- 4.3.6. Jamiyatni rivojlantirish dasturlari va biznes-rejalarini ishlab chiqishni boshqarish, ularni bajarilishini tashkillashtirish va nazorat qilish.
- 4.3.7. Jamiyat faoliyatida qonunchilik talablariga rioya qilinishini ta'minlash.
- 4.3.8. Qonunchilikka muvofiq Jamiyatda buxgalteriya hisobi va hisobotning tashkil etilishi va ishonchligini hamda aksiyadorlarga, kreditorlarga va boshqa oluvchilarga yuboriladigan Jamiyat faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etilishini ta'minlash.
- 4.3.9. Har chorakda yillik biznes reja bajarilishi haqida Kuzatuv kengashiga hisobot berish.
- 4.3.10. Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hujjatlarni Jamiyatning kuzatuv kengashi, taftish komissiyasi va auditori talabiga ko'ra to'sqinliksiz taqdim etish.
- 4.3.11. Davlat statistika hisobotini tegishli organlarga to'liq va o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlash.
- 4.3.12. Jamiyatning tijorat sirini tashkil etuvchi axborotlarni saqlash agar uchinchi shaxslarga bunday ma'lumotlarni berish uning majburiyatlar

doirasiga kirmagan bo'lsa.

4.3.13. Tijorat va xizmat sirini tashkil etuvchi axborotlarni Jamiyat xodimlari tomonidan saqlashlarini ta'minlash.

4.3.14. Jamiyat boshqaruvi majlislarini o'tkazishni tashkillashtirish, Jamiyat nomidan hujjatlarni va boshqaruv majlisi bayonnomalarini imzolash.

4.3.15. Jamiyatni malakali mutaxassislar bilan ta'minlash choralarini ko'rish, Jamiyat xodimlarining bilim, malaka, tajriba va qobiliyatlaridan samarali foydalanish.

4.3.16. Mehnat va texnologik tartibini saqlash.

4.3.17. Jamiyat xodimlarining ijtimoiy kafolatlariga rioya qilinishini va ularning mehnatini muhofaza qilishni ta'minlash.

4.3.18. Kollektiv muzokaralarda boshqaruv vakillari ishtirokini ta'minlash. Kollektiv shartnomalar va kelishuvlar imzolanayotganda ish beruvchi sifatida chiqish. Kollektiv shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish.

4.3.19. Amaldagi qonunchilikka, Jamiyatning ustavi va ichki hujjatlar talablariga rioya qilish.

4.4. Jamiyat boshqaruvi raisining aniq huquq va majburiyatlari u bilan shartnomada kelishib olinadi.

V bo'lim.

Jamiyat boshqaruvining ish tartibi

5.1. Jamiyat boshqaruvi majlislari zarur hollarda o'tkaziladi.

5.2. Jamiyat boshqaruvi majlislarini boshqaruv raisi yoki ko'rib chiqilayotgan masalalarning tegishligicha uning o'rinbosarlaridan biri o'tkazadi.

5.3. Boshqaruv majlislari bayonnomalari Jamiyat boshqaruvi kotibi tomonidan yuritiladi.

5.4. Boshqaruv majlislari bayonnomalari:

5.5. Kuzatuv kengashi va taftish komissiyasi raislariga ularning talabiga ko'ra;

5.5.1. Amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda boshqa shaxslar va organlarga (shu jumladan, davlat organlariga) taqdim etiladi.

VI bo'lim.

Jamiyat boshqaruvi a'zolariga haq to'lash tartibi

6.1. Boshqaruv a'zolariga to'lanadigan haq miqdori Jamiyat faoliyatining samaradorligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi va mehnat shartnomalarda hamda "Ijroiya organini moddiy rag'batlantirish to'g'risida"gi Nizom bilan belgilanadi.

6.2. Jamiyatning boshqaruv a'zolariga haq to'lash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 28-iyuldagi 207-son qarori bilan tasdiqlangan "Davlat ulushi bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati samaradorligini baholash mezonlari to'g'risida"gi nizomda belgilangan tartibga va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-dekabrda 775-son qarori talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

6.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-martdagi PQ-101-son qarorining 4-ilovasi bilan tasdiqlangan Davlat aktivlarini boshqarish sohasida islohotlarni chuqurlashtirish va tizim faoliyatini transformatsiya qilish bo'yicha "Yo'l haritasi" talablariga asosan qonun hujjatlariga muvofiq davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organiga axborotlar va ma'lumotlar taqdim etilmaganda yoki o'z vaqtida taqdim etilmaganda ijroiya organi rahbarlari rag'batlantirilmaydi.

VII bo'lim.

Jamiyat boshqaruvi a'zolarining javobgarligi

7.1. Jamiyat boshqaruvi raisi va boshqaruvi a'zolari, o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda Jamiyatning manfaatlarini ko'zlab ish tutishi hamda belgilangan tartibda javobgar bo'lishi lozim.

7.2. Jamiyat boshqaruv a'zosi o'z ish faoliyati davrida Jamiyatning mahsulotlarini sotish yoki xizmatlar taqdim etishda qiyinchilik tug'diradigan korxonalarni ta'xis etish yoki ta'xis etishda qatnashish huquqiga ega emaslar. Boshqaruv a'zosi Jamiyatda lavozimga tayinlanganda, xuddi shunday korxonalaridagi o'z ishtirokini to'xtatishi va bu to'xtatish to'g'risida Jamiyat kuzatuv kengashini xabardor qilmog'i lozim.

7.3. Boshqaruv a'zosi Jamiyat bilan bitim tuzishda affillangan ekanligi to'g'risida tuzilishi kutilayotgan bitim haqidagi ma'lumotlarni, shu jumladan, bitimda ishtirok etayotgan shaxslar, bitim predmeti to'g'risidagi ma'lumotlarni, tegishli shartnomaning muhim shartlarini batafsil ko'rsatgan holda, yozma bildirish yuborish orqali Jamiyatni xabardor etishi shart.

Jamiyat boshqaruvi a'zosi affilanganligi O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni 9-bobining talablariga muvofiq aniqlanadi.

7.4. Jamiyat boshqaruv a'zosi o'z vazifalarini bajarmaganligi yoki zarur darajada bajarmaganligi, natijasida unga yetkazilgan zarar uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga, Jamiyat ustaviga va mazkur nizomga muvofiq yetkazilgan zararni qoplash bo'yicha to'liq hajmda Jamiyat oldida javobgardir.

7.5. Jamiyatga zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan qarorga ovoz berishda ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergan boshqaruv a'zolari javobgar bo'lmaydi.

7.6. Jamiyat yoki u joylashtirgan aksiyalarning hammasi bo'lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) Jamiyatga yetkazilgan zararlarining o'rnini qoplash to'g'risidagi da'vo bilan jamiyat boshqaruvi raisi yoki boshqaruv a'zosi ustidan sudga murojaat qilishga haqli.

7.7. Sud jamiyat boshqaruvi raisi yoki a'zosini, jamiyatga mulkiy zarar yetkazganlikda aybdor deb topgan taqdirda, sud qaroriga ko'ra ularning vakolatlari xo'jalik jamiyatlarida rahbarlik lavozimini egallash taqiqlangan holda, kamida bir yil muddatga tugatilishi mumkin.

7.8. Jamiyat boshqaruvi raisi yoki a'zosi quyidagilar natijasida jamiyatga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'ladi:

chalg'ituvchi axborot yoki bila turib yolg'on axborot taqdim etganlik;

O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunida belgilangan axborot taqdim etish tartibini buzganlik;

jamiyatga zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan yirik bitimlarni va (yoki) amalga oshirilishidan manfaatdorlik mavjud bo'lgan bitimlarni tuzishni taklif etganlik, shu jumladan, jamiyat bilan bunday bitimlar tuzilishi natijasida o'zlari yoki o'z affillangan shaxslari tomonidan foyda (daromad) olish maqsadida bitimlar tuzishni taklif etganlik.

7.9. Agar jamiyatning ijroiya organi tomonidan yirik bitim yoki affillangan shaxslar bilan bitim tuzish tartibi buzilganligi natijasida jamiyatga zarar yetkazilgan bo'lsa va bunda jamiyat boshqaruv raisining yoki boshqaruv a'zolarining aybi qonunchilikda belgilangan tartibda isbotlansa, jamiyatning kreditorlar oldidagi qarzdorligini qoplash uchun uning mol-mulki yetarli bo'lmagan taqdirda, jamiyatning majburiyatlari bo'yicha subsidiar javobgar bo'ladi.

7.10. Agar ushbu bo'lim qoidalariga muvofiq bir nechta shaxs javobgar bo'lsa, ularning jamiyat oldidagi javobgarligi solidar javobgarlik bo'ladi.

VIII bo'lim. Yakuniy qoidalar

8.1. Mazkur nizom aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

8.2. Agar mazkur nizomni biron bir qoidasi o'z kuchini yo'qotgan bo'lsa, bu qoida boshqa qoidalarni to'xtatish uchun sabab bo'lmaydi.

8.3. Agar O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlari yoxud Jamiyat ustavida mazkur Nizomda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari va Jamiyat ustavi qoidalari qo'llaniladi.

8.4. Mazkur nizom kuchga kirgan kundan boshlab, avval aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan "O'zkimyosanoat" AJ "Ijroiya organi to'g'risida"gi nizom va unga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar o'z kuchini yo'qotadi.